

ONA TILI VA O'QISH DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY FAOLIAYTINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI.

Muslima Abdunazarova Abdug'affor qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va o'qish darslari jarayonida o'quvchilarning nutqiy faoliyatini takomillashtirishda texnik vositalardan foydalanish yo'llari; innovatsion metodlarni qo'llash; darsni to'g'ri tashkil qilish; kreativ, kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish aks etgan.

Kalit so'zlar: 4K modeli, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik tahlil, tamoyil, platforma, boshlang'ich ta'lif, ko'rgazmalilik, ona tili, o'qish, texnik vositalar, darslik.

Ways to use technical tools to increase pupils' speech activity in native language and reading lessons.

Annotation: This article reflects ways to use technical means to increase students' speech activity in native language and reading lessons; use innovative methods; properly organize the lesson; develop creative and critical thinking skills.

Keywords: 4K model, collaboration, communication, creative thinking, critical analysis, principle, platform, primary education, demonstration, native language, reading, technical tools, textbook.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod dasturi darsliklari asosida ta'lif oladi. Ushbu qo'llanilayotgan darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning yangi 4K modeli tamoyillari asosida ishlab chiqilganligi va ta'lif jarayoniga tatbiq etilganlidir. O'quvchilar endilikda berilayotgan ma'lumotlarni quruq yodlash yoki shunchaki o'qib yozish bilan kifoyalanib qolmay bugungi zamonaviy davr uchun ham zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni egallab boradi. 4K modeli asosida yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi. 1-sinf alifbe darsligida "So'zlarni bo'g'lnlarga bo'lish" mavzusida Alifbe qahramonlari bilan tanishuv mashqi orqali o'quvchilar bilan matnni rollarga bo'lib o'qish mumkin va bu mashqni o'zlari bilan o'tkazilsa, o'quvchilar bir birlarining nimalarga qiziqishlaridan xabardor bo'ladilar. 2-3-4 sinf o'qish savodxonligi darsliklarida ham jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ko'plab mashqlar berilgan. Ayniqsa, darslikdagi "Jamoa bo'lib ishlang" deb alohida shartli belgining

bo'lishi ham o'quvchilar orasida hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy belgilardan biridir.Ushbu belgi kelgan joyda mashq mazmuni ham aynan guruhlarga bo'linib ishlang mazmunida keladi.Mashqlar orqali o'quvchilar o'zlarining jamoaviy ishlash qobiliyatini o'stiradi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.Bunda o'quvchilar o'zlarining nutqiy qobiliyatlarini namoyon etadilar.Darsliklarda berilayotgan matnlar va ular yuzasidan beriladigan savollar ko'proq o'quvchini o'ylanishga,o'z ustida ishlashga,nutqiy ko'nikma malakasini oshirishga qaratilgan."Misralar oxiriga ohangdosh so'zlarni topping" "Vatan so'ziga ta'rif bering" "Amerikada daraxtlar nima uchun qurib qoldi?" "She'rni o'qiganingizda ko'z oldingizda nimalar namoyon bo'ldi?" kabi ko'plab savollar o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Darsliklarda beriladigan "O'ylab ko'ring" shartli belgisi mashqqa ijodiy yondashish kerakligini anglatadi.Misol uchun,"Berilgan harflarning o'rnini o'zgartirib,bo'limga mos so'znitoping" Shu kabi mashqlar ham o'quvchi ongini ijodiy fikrlashga undaydi

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar matn yuzasidan berilgan savollar orqali tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.Xususan,"Tabiatda daraxtlarning kamayib ketishiga nimalar sabab bo'lyapti,deb hisoblaysiz?" "Orol dengizining qurishiga nima sabab bo'lgan deb hisoblaysiz?" "Rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir-biriga bog'lab,bo'lim mazmuniga mos gaplar tuzing" kabi mashqlar o'quvchi kritikasining yangi qirralari ochilishiga xizmat qiladi.

O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

Ta'lim jarayoning sifatli bo'lishida ko'rish orqali narsa hamda uning tildagi ifodasi haqida aniq tushunchaga ega bo'lsh muhim ahamiyatga ega.

Maktab ta'limi, asosan, bolaning mantiqiy tafakkuriga asoslangan holda ish ko'rishi lozim. Bunda obrazli tafakkur mantiqiy tafakkurning bir qadar past va oddiy shakli ekanligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Shu bilan bir qatorda, obrazli tafakkur

kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham, obrazli tafakkur boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chizmalar, modellar, atrof-muhiddagi turli xil jismlar yordamida bilimlarni puxta o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim mazmunida bolalarning tasavvurini va ijodiy tafakkurini o‘stirishga qaratilgan, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari ajratilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim – bola shaxsi rivojlanishining eng muhim davri hisoblanib, bu davr bola ongi ostida olamni anglash, tasavvur va tafakkur dunyosini qayta kashf etish kabi o‘ta nozik davr sanalganligi uchun ham katta e’tibor talab etadi. Ayni paytda bola o‘z dunyosida “o‘quvchi” shaxsini yaratadi, maktabga, bilim olishga mehr, qiziqish tuyadi va kelgusida yuksak marralarni egallash uchun kuch to’playdi. Bu esa o‘z navbatida bugungi zamonaviy darsliklarga ham g’oyaviy, ham tarbiyaviy, ham ma’rifiy jihatdan mas’uliyatli yondashish kerakligini talab etadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyati beqiyosligini albatta dars tahlili jarayonida ko‘rishimiz mumkin. Bu ta’lim jarayoni o‘quv fanlarini o‘qitish samaradorligi va sifatini belgilaydi. O‘qish darslari bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga morfologiya bo‘limi haqida tushuncha berish uchun o‘qituvchi ta’limning eng qulay usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi dars jarayonini tashkil qilishda raqqli ta’lim tehnologiyasidan foydalansa o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi o’sib boradi. O’tilgan dars jarayonidagi ma'lumotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyatini to‘g’ri, mantiqiy xulosa chiqarish hamda oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi. Bunda darslarni samarali tashkil qilishda texnik vositalar va didaktik o‘yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyushtiriladi. Bunda o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan, o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan materiallarni oson o‘zlashtiradi va shu bilan birga atrof-muhit, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko‘rishga, ular to`g`risida fikrlashga, ulardan to‘g’ri xulosalar chiqarishga va xulosalarini asoslashga o‘rganadilar. O‘quvchilarni fanga qiziqtirishni va bilim, ko‘nikma, malakalarini to‘g’ri egallahlariga erishishni didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi .

1-sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘qituvchi o‘zi o‘quvchilar uchun elektron o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlab, ulardan dars jarayonida foydalanishi mumkin. Unda so‘zlarni tovushli-harfli jihatdan tahlil qilish, so‘z bo‘g‘inlarining tuzilishi, ba’zi orfografik yoki orfoepik qoidalar o‘rganilishini turli qiziqarli ko‘rgazmali va ovozli material tarzida berish mumkin. Yorqin rasmlar, kreativ fikrlashga undaydigan qiziqarli

topshiriqlar kichik yoshdagi o‘quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, didaktik o‘yinlar shaklida o‘quv materiali bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo‘llanma bo‘yicha ta’lim jarayonini differensiatsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o‘qitish bo‘yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo‘limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.

Ona tili bo‘yicha o‘rganiladigan so‘z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o‘quvchilarda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o‘quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nosini topishga, sinonimlarni to‘g‘ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o‘rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag‘ishlangan «Teskari o‘yin» testidan foydalanish o‘quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta’sir etadi.

Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o‘quvchining ko‘zi, miyasi va qo‘llari ishtirok etadi, o‘yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta’lim jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o‘quvchilar dars materiallarni mustaqil o‘rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar.

Platformadan dars davomida ham, bo‘sh vaqtida ham foydalanish mumkin. O‘quvchilar uning yordamida o‘zlashtirilgan bilimni mustahkamlash bilan birga, mustaqil tarzda dasturdan oldinlab ketishlari ham mumkin.

O‘quv-metodik komplekslar Android, IOS platformalari va “Matematika” va “Alifbo” mobil ilovalari uchun o‘zbek va rus tillarida ongni o‘stiradigan o‘yinlar to‘plamiga ega interfaol o‘quv dasturini ham o‘z ichiga oladi.

E’tiborlisi, 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san’at, ona tili va musiqiy savodxonlik bo‘yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilarni fanga yanada ko‘proq qiziqtirish hamda bugungi zamonaviy gadjetlarni foydali vositaga aylantirish maqsadida ishlab chiqildi.

Ushbu darsliklarda nafaqat fanlar, balki 21-asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalar ham o‘rgatiladi.

Ayni damda kitoblar yosh psixologiyasini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan. Masalan, birinchi sinfda ta’lim jarayoniga ko‘proq o‘yin orqali yondashiladi, ma’lumotlar asosan ko‘rsatish-vizual tarzda yetkaziladi.

Darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida didaktik o‘yinlarni to’g’ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Didaktik oyinlar uchun didaktik materiallarni tayyorlab qo‘yish, didaktik o‘yin jarayoni uchun vaqtini to’g’ri belgilash hamda to’g’ri nazorat qilish, didaktik o‘yinni yakunlash va xolisona baholash kabilarni aniq rejalashtira olish lozim.

Ko‘rgazmalilik tamoyili ta’lim jarayonida kuzatishdan - hissiy aniq tasavvur hosil qilishga, undan grammatik tushunchalarni atroflicha o‘zlashtirishga qarab boradi. Til o‘rgatish jarayonida buyumlar, jadvallar, rasmlar, xarita va boshqa tasviriy vositalardan, diafilm, kinofilm va audioeshittirishlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilimini har tomonlama puxta bo‘lishiga erishish mumkin. Bu tasviriy vositalar ona tilini o‘rganuvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga hamda ularni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga, lingvistik va nutqiy kompotensiyalarini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Didaktik material bilan ishslash ongli faollikni shakllantiradi, o‘rganilayotgan tilda fikrni mantiqan to’g’ri va keng bayon qilishga, nutqning rang-barang bo‘lishiga ko‘maklashadi. SHu sababli til o‘rgatuvchi turli manbalardan olingan rasmlar yordamida topshiriqli tarqatma materiallar tayyorlashi va mavzuning mohiyatiga qarab ulardan foydalanishi mumkin. Tarqatma materiallar uchun tanlanadigan rasmlarning mazmuni o‘quvchilarning diqqatini torta oladigan bo‘lishi, topshiriq shartiga muvofiq kelishi, mavzuni oolib berishga xizmat qilishi, bilimlarni ko‘nikmaga aylantirishga amaliy yordam ko‘rsatishi lozim. Diafilmlarni namoyish etish orqali berilgan mavzu asosida savollar tuzish va ularga javob hozirlash yoki o‘quvchilarning savol - javoblarini o‘tkazish, gap, hikoya matnini tuzish ustida ishlashini uyushtirish mumkin.

O‘qish darslarida ko‘rgazmali qurollardan, tehnik vositalaridan barcha turdag‘i darslarda va darsning barcha bosqichlarida unumli foydalansa bo‘ladi. O‘quv materialini mustahkamlash va takrorlash jarayonida o‘zlashtirilgan ma’lumotni xotiraga tushiruvchi ko‘rgazmali quroldan foydalanilsa, yangi bilim berishda ko‘proq izlanuvchanlikni talab qiladigan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ammo shuni unutmaslik lozimki, ko‘rgazmali qurollardan unumli foydalanilsagina dars samarali bo‘ladi. Darsning katta qismining ko‘rgazmali qurollardan foydalanishga sarf etilishi yoki undan me’yordan ortiq foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini susaytiradi, toliqtiradi, zeriktiradi, darsning ilmiy jihatini kamaytirib oddiy lashuvini, ya’ni fikrning dars mavzuidan va asosiy masaladan chetlashishiga sabab bo‘ladi, oqibatda darsdan kutilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. SHu bilan birga ko‘rgazmali qurollardan foydalanishni bir me’yorda va tartibli, rejalashtirilgan va qat’iy vaqt taqsimoti asosida olib bormaslik mazkur darsda o‘zlashtirishi mo’ljallangan o‘quv materialiga ajratilgan vaqtning

yetishmasligiga olib keladi. Og'zaki nutqni o'stirishda ko'rgazmali quollar va texnik vositalardan samarali foydalanish talab etiladi. Ko'rgazmali quollar yordamida:

- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalar asosida suhbatlar uyushtiriladi;
- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalar yuzasidan savollar tuzilib, ularga og'zaki javoblar hozirlanadi;
- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalarda tasvirlangan voqealar so'zlab beriladi;
- ular asosida hikoya matni tuziladi va so'zlab beriladi.

Televizor, kompyuter va boshqa turdagি texnik vositalar yordamida:

- Matn ikki-uch marta eshittirilgach, uning mazmuni so'zlab beriladi;
- matn asosida tuzilgan savollar va ularning javoblari eshittiriladi va o'quvchi tomonidan takrorlash asosida o'rganiladi;
- lug'atlar yodlanadi;
- matnni tinglash orqali ko'chirib yozish, ular yuzasidan turli topshiriqlarni bajarish, jumladan, savollar tuzish va ularga javoblar tayyorlash, so'ngra texnik vosita orqali berilgan topshiriqlar tuzilgan savollar va ularga berilgan javoblar bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agar yuqoridagi mashqlarning bajarilishi televizor yordamida ko'rsatiladigan bo'lsa, o'quvchilarning mashqlarni bajarilish jarayonida ularning imloviy jihatlariga ham e' tibor qaratishlariga imkoniyat yaratiladi. Eshitish sezgilari qatorida ko'rish sezgilarining ham ishtiroy etishi til o'rganishda yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash. 2. Qosimova K. va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi", 2009. -215 b.
- 3.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov,. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf. –Toshkent, 2022. –144 b.
- 4.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf. –Toshkent, 2021. –120 b.
- 5.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf . –Toshkent, 2021. –104 b.